



BOSQINCHILIK JINOYATINI TERGOV QILISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

Raxmatullayev Muzaffar Talgatovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki
ishlar vazirligi Akademiyasi Oliy ta'limdan
keyingi ta'lim mustaqil izlanuvchisi
100197, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68-uy
E.mail: muzaffarraxmatulayev@icloud.com

Ilmiy mutaxassisligi:

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

ORCID: 0009-0009-0266-5616

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18325283>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 18-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 21-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

*bosqinchilik, hodisa,
ko'rsatuvlar, gumon qilinuvchi,
ayblanuvchi, takomillashtirish,
istiqbol, dalillar*

ABSTRACT

Ushbu maqolada bosqinchilik jinoyatini tergov qilish jarayonida huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar chuqur tahlil qilinib, tergov faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif, qonunchilikdagi mavjud kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish maqsadida, bosqinchilik jinoyatlarini tergov qilishda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga oid konkret takliflarni ilgari surgan. Maqolada shuningdek, bosqinchilik jinoyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, tergov harakatlarini amalga oshirish zarurligi asosli ravishda ko'rsatilgan..

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiliklariga insonparvarlik tamoyillarini singdirish orqali "Inson qadri"ni ulug'lash va shu yo'l bilan inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdir. Buning uchun ichki ishlar organlari faqat jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash bilan cheklanmasdan, shu bilan birga jinoyatlarning oldini olish, ularga "issiq izi" dan fosh etish va aybdor shaxslarga javobgarlik muqarrarligini ta'minlashdan iborat. Ushbu faoliyatni samarali va tizimli ravishda takomillashtirish, islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun ushbu faoliyat doimiy ravishda isloh etib borilishi lozim.

Tadqiqot davomida mantiqiylikka asoslangan holda qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik hamda sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishi hujjatlari hamda sud hukmlarini tahliliy o'rganish asosida, bosqinchilik jinoyatini tergov qilishda yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilishni lozim topdik.

birinchidan, Tadqiqot davomida o'rganilgan 10 ta fosh etilmagan jinoyat ishlarining 2 tasi kuzatuv kameralariga tushgan bo'lsa-da, biroq uni sodir etgan shaxslarning yuz ko'rinishlari yaxshi ko'rinmaganligi yoki yuziga niqob taqqanligi sababli ularni shaxsini aniqlashning imkoni bo'lmaganligi uchun jinoyat ishlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 364-moddasi 1-qismi 1-bandiga asosan harakatdan to'xtatilgan.

Ayni ushbu holatlarni oldini olish uchun “AQSh tajribasida keng qo’llanilayotgan usullardan biri sifatida gumon qilinuvchini aniqlashda yurish tahlilidan foydalaniladi. Kuzatuv kameralari ko’pincha odamlarning yuzlari xira bo’lgan yoki niqob kiygan bo’lsa ham, kuzatuv kamerasida insonning yurgani to’liq aks etadi. Kuzatuv kameralaridagi yurish harakatlari gumon qilinuvchi yoki boshqa aloqador shaxslarning yurish harakatlari bilan qiyosiy solishtirish orqali aniqlanadi. Barmoq izlari yoki DNK kabi identifikatsiya dalillarining boshqa shakllari kam yoki noaniq bo’lgan hollarda yurish tahlili qo’shimcha dalil manbayi bo’lishi mumkin”¹.

Fikrimizcha, ushbu tahlil cheklangan dalillarga ega bo’lgan tergov vaziyatida, ya’ni jinoyat sodir etgan shaxsni jabrlanuvchi ko’rmagan yoki qorong’u joylarda sodir etilgan bosqinchilik jinoyati yaqin atrofdagi kuzatuv kameralaridagi tasvirlarda gumon qilinuvchining o’ziga xos yurish shaklini aniqlashda tergov organlariga sezilarli darajada yordam beradi.

ikkinchidan, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchini guvohlantirish juda muhim bo’lgan tergov harakatlaridan biri bo’lsa-da, bosqinchilik jinoyatini tergov qilishda bunga aksariyat holatlarda e’tibor qaratilmaydi. Dastlabki tergov bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxsni guvohlantirish o’tkazish asoslari O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasida belgilangan bo’lib², ekspertiza tayinlamay turib ham quyidagi hollarni aniqlash uchun o’tkazilishi mumkin:

a) odamning badanidagi ish uchun ahamiyatga molik xususiyat yoki alomatlar, alohida belgilar, uning jismoniy rivojlanganligi to’g’risidagi ma’lumotlarni, dog’larni, tiralgan, shilingan, qontalash joylarni topish zarurati tug’ilganda;

b) shaxsning mastlik va boshqa fiziologik holatini aniqlash zarurati tug’ilganda.

Bosqinchilik jinoyati bo’yicha guvohlantirish jabrlanuvchining tajovuz natijasida yoki jinoyat sodir etgan shaxsga qarshilik ko’rsatish natijasida olgan jarohatlarini hamda boshqa muhim belgilarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Jabrlanuvchi gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning tanasida jinoyat sodir etilgan vaqtda ko’rsatgan qarshiligi oqibatida jarohatlar qolgan bo’lishi mumkin yoki barmoqlarning yo’qligi, tirtiqlar, tatuirovkalar, tiralgan joylar, momataloq kabi maxsus belgilarning mavjudligi haqida bergan ko’rsatuvlarini guvohlantirish o’tkazish orqali tekshirish zarurati vujudga keladi. Odam tanasida odatda jinoyat izlari jarohat (yara), shilinish, tiralish, qontalash, yulingan sochlar, dog’lar, qon izlari va boshqa ko’rinishida qoladi.

Jabrlanuvchilarni guvohlantirish va ularning kiyimlarini ko’zdan kechirish o’ziga xos xususiyatga ega emas hamda umumiy qoidalarga asosan amalga oshiriladi. Tergovchida jinoyat sodir etilgan paytda gumon qilinuvchining tanasida jarohatlar yuzaga kelgan bo’lishi mumkinligi to’g’risida yoki hodisa sodir bo’lgan joyda u talon-toroj qilgan buyumlarning qoldiqlari yoxud maxsus belgilari mavjudligi to’g’risida asosli taxminlar paydo bo’lsa, ushlab turilgan shaxsni guvohlantirish mumkin. Guvohlantirish bayonnomasida quyidagi belgilar o’z aksini topishi lozim: shikast (jarohat, chandiq, tirtiq)ning nomi, tug’ma dog’, xol, tatuirovka va boshqa; joylashgan joyi; miqdori; shakli; hajmi; jarohat cheti va po’stining holati; jarohat

¹ Elektron manba: <https://www.walshmedicalmedia.com/open-access/human-gait-analysis-for-forensic-identification-and-criminal-profiling-122118.html> Murojaat qilingan sana: 28.10.2024-yil

² O’zbekiston Respublikasi JPK 142-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.10.2024-yil

atrofidagi teri qatlamining holati.

uchinchidan, bugungi kunda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlarining bosqinchilik kabi og'ir jinoyatlar va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi boshqa huquqbuzarliklarni issiq izidan fosh etishda ularga ayrim vakolatlar berilmaganligi ushbu turdagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Afsuski, huquqni qo'llash amaliyotida ichki ishlar va milliy gvardiya harbiy xizmatchilari aksariyat hollarda faqat shaxslarni "to'xtatib turuvchi" yoki "ushlab beruvchi" subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda, bu esa tergovning dastlabki oltin soatlarini boy berilishiga olib kelmoqda.

Huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari va milliy gvardiya bo'linmalari xodimlarining faoliyatida quyidagi to'siqlar mavjud ekanligi ma'lum bo'lmoqda:

shubhali shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shaxsiy ko'rikdan o'tkazish maqsadida obyekt hududida maxsus tashkil etilgan joyga olib borish hamda ularni tegishli tartibda ko'rikdan o'tkazish bo'yicha aniq vakolatlarining mavjud emasligi, jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olish imkoniyatlarini cheklamoqda hamda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda;

yirik obyektlarga kirish joylarida tashrif buyuruvchi shaxslar orasida jamoat tartibini buzish yoki g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishi mumkinligi yuzasidan shubha uyg'otgan shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish, shuningdek, ularning yonlaridagi buyum va ashyolarni belgilangan tartibda ko'zdan kechirish vakolatlarining mavjud emasligi jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va fosh etish imkoniyatlarini cheklamoqda hamda jinoyatlarni oldini olish borasidagi samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda;

yirik obyektlar hududiga alkogolli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki boshqa ta'sir qiluvchi moddalar ta'siri ostida mast holatda bo'lgan shaxslarning kirishini cheklash bo'yicha aniq huquqiy vakolatlarining berilmaganligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatib, jinoyatlarning oldini olish va ularni o'z vaqtida aniqlash hamda fosh etish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklamoqda;

yirik obyektlarga kirib kelayotgan har qanday transport vositasining yukxonasini ko'zdan kechirish, shuningdek, shubha uyg'otgan transport vositalari yukxonasi, saloni va boshqa qismlarini tekshirish bo'yicha aniq huquqiy vakolatlarining mavjud emasligi jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va fosh etish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda;

obyektga tashrif buyuruvchi shaxslar o'z transport vositasini, shaxsini yoki undagi buyumlarni tekshiruvdan bosh torgan holatda, ularni obyekt hududiga kiritishni cheklash vakolati mavjud emasligi ma'lum bo'ldi. Bu holat o'z navbatida jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va fosh etish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab, jamoat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga xodimlar tomonidan o'z xizmat vazifalarini samarali amalga oshirishda quyidagilar ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

yirik ob'ektlar hududida umumiy qabul qilingan xulq-odob normalarini buzayotgan shaxslarni chiqarish va ulardan qonunga rioya etishni talab qilish, shuningdek, qonuniy talablar bajarilmasa, ularga nisbatan vakolati doirasida chora ko'rishning yo'qligi;

obyektga sodir bo'lgan jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik yoki boshqa noxush holatlar bilan bog'liq shaxslarni qo'lga olish, ularni topish va ularga chek qo'yish, shuningdek, jinoyatlarni fosh etish va oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha vakolatlar berilmaganligi;

hodisa sodir bo'lgan joyga darhol yetib borib, jinoyat yoki huquqbuzarlikni to'xtatish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va sodir bo'lgan holatlarni hujjatlashtirish ularning xizmat vazifasiga kiritilmaganligi;

jabrlangan yoki noquvvat ahvolda qolgan shaxslarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va shubhali shaxslar, transport vositalari va egasiz buyumlarni aniqlash maqsadida kuzatuv ishlarini olib borish vakolatining mavjud emasligi o'z navbatida jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash, fosh etish va oldini olish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi hamda huquqni qo'llash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, xodimlarga elektron profilaktika va surishtiruv tizimi doirasida shubhali shaxslarni joyida tekshirish uchun biometrik ma'lumotlar bazasidan foydalanish huquqini kengaytirish zarur. Bosqinchilik jinoyati sodir etilgan hududdagi xususiy videokuzatuv kameralari ma'lumotlarini tezkor ravishda olish va ko'zdan kechirish majburiyatini yuklash;

Milliy gvardiya xodimlariga va ichki ishlar organlari patrul xodimlariga jamoat tartibini buzgan shaxslarga nisbatan joyida elektron ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirish bilan birga, jinoyat alomatlari aniqlanganda hodisa joyini protsessual "o'rab olish" vakolatini berish;

guvohlar va jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini "bodikamera" orqali qayd etishni dalil sifatida tan olish tartibini mustahkamlash va boshqa.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlarining huquq va majburiyatlari doirasiga quyidagi huquq va majburiyatlarni kiritish orqali ularning faoliyatini samarali tashkil etish va jamoat xavfsizligini yanada samarali ta'minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Bular quyidagilar:

obyektga kirish joylarida tashrif buyuruvchi shaxslarning jamoat tartibini buzishda, shuningdek, g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishda shubha uyg'otgan shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirish, yonidagi buyum va ashyolarni ko'zdan kechirish;

zaruratga ko'ra shubhali shaxslarni belgilangan tartibda ko'rikdan o'tkazish uchun obyektga tashkil etilgan maxsus joyga olib borish va ko'rikdan o'tkazish;

obyekt hududiga alkogolli ichimlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop va boshqa moddalar ta'sirida mastlik holatida bo'lgan shaxslar kirishini cheklash;

obyektga kirayotgan har qanday transport vositasining yukxonasini, shubha uyg'otgan transport vositalarining esa yukxonasi, saloni va boshqa joylarini shaxsiy xavfsizlikka amal qilgan holda ko'zdan kechirish;

obyektga tashrif buyuruvchi shaxslarning o'z transport vositasini tekshiruvdan, shaxsiy tekshiruvdan yoki undagi buyumlar tekshirilishidan bosh tortgan taqdirda, ob'ektga tashrif buyuruvchini (transport vositasini) ob'ekt hududiga kiritmaslik;

obyekt hududida umumiy qabul qilingan xulq-odob normalarini buzayotgan shaxslarning hududdan chiqib ketishlarini talab qilish;

obyektga tashrif buyuruvchi shaxslardan qonunchilik hujjatlariga rioya etishni, shuningdek, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni to'xtatishni talab qilish, ushbu talablar bajarilmagan taqdirda, vakolati doirasida tegishli choralar qo'rish;

obyekt hududida jinoyat, ma'muriy huquqbuzarliklar yoki boshqa noxush hodisalar sodir bo'lgan joyni ularga aloqador bo'lmagan shaxslar tark etishlarini talab qilish;

jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish va ularni fosh etish, shuningdek, ularni sodir etishga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash hamda topish choralari ko'rish;

jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyga darhol yetib kelish, g'ayriqonuniy qilmishlarga chek qo'yish, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish choralari ko'rish, jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi holatlarini belgilangan tartibda hujjatlashtirish;

jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek, nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yoki boshqa turdagi yordam ko'rsatilishini tashkil etish;

shubhali shaxslarni va transport vositalarini, egasiz buyumlarni aniqlash maqsadida obyekt hududida kuzatuv ishlarini olib borish.

Fikrimizcha, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya xodimlariga ushbu huquq va majburiyatlarni berish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorini ishlab chiqish taklif etiladi.

to'rtinchidan, bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxslarni qo'lga olish va ularni ushlab turish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar o'ta tajavvuzkor va jahldor bo'lishadi. Shuning uchun ushbu masalani alohida tartibda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bosqinchilik hujumini sodir etgan shaxslarni ushlab turish jinoyat-qidiruv bo'limi tezkor vakillari tomonidan tergovchi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshiriladi. Gumon qilinuvchilarni ushlab turish O'zbekiston Respublikasi JPKning 220-moddasiga asosan "ushlab turish jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirish yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir"³.

Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Ish qo'zg'atilganidan keyin ushlab turishga faqat tergovchi va prokurorning qaroriga muvofiq yo'l qo'yiladi. Bosqinchilik hujumini sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turishga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Ushlab turishga tayyorgarlik ko'rishda: jinoyat ishi materiallarini o'rganish; ushlab turish lozim bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar to'plash; ushlab turish joyi va vaqtini belgilash; ushlab turish amalga oshiriladigan joydagi sharoitni o'rganish; gumon qilinuvchilarni bir vaqtda va turli joylarda ushlab turish uchun ularni bir-birdan ajratish chorasini ko'rish zarur. Chunki ushbu shaxslar qurollangan bo'lishi mumkin. Shuning uchun atrofdagilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ushlab turishni erta tongda yoki tunda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ushlab turishni uylarning kirish yo'lagida, tor ko'chada, skverda va boshqa shu kabi joylarda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ushlab turishni ish joyida ham amalga oshirish mumkin. Bunda gumon qilinuvchi boshqaruvchining xonasiga yoki boshqa xonaga taklif qilinadi va shu yerda ushlab turiladi. Jinoiy guruhning barcha a'zolarini bir vaqtda ushlab turish faqat boshqa iloji bo'lmagan holatlarda amalga oshiriladi. Agar jinoyatning barcha ishtirokchisi aniqlangan bo'lsa, unda jinoiy guruhni qolgan a'zolarining turgan joylarini aniqlash maqsadga muvofiq. Chunki uni darhol ushlab turish noxush oqibatlarga olib kelishi

³ O'zbekiston Respublikasi JPK 220-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.09.2024-yil

mumkin. Ushlashni kechiktirish, jinoyat sodir etgan shaxsning kiyimi, tanasi, uyidagi ashyolarda ish uchun muhim bo'lgan izlarning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan hollarda yoxud u ochiqda qolsa boshqa og'irroq jinoyatni sodir etishi ehtimoli bo'lganda istisno tariqasida ushlash kechiktirilmaydi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlash uchun tayyorgarlik ko'rishda: ushlash guruhi tarkibini aniqlash, uning tarkibiga kuzatuv, qurshab olish, qurolli himoya, ushlash, zaxira guruhlari kiradi; mazkur guruhni qurollantirish va kerakli anjomlar, transport, zarur aloqa vositalari bilan ta'minlash, guruh a'zolariga yo'riqnoma o'tkazish amalga oshiriladi. Ushlash guruhi tarkibiga har bir ushlanayotgan shaxsga nisbatan uch nafardan kam bo'lmagan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlarni jalb qilish tavsiya etiladi.

Ushlangan shaxslar IIB xodimiga hujum qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan qurollar, predmetlar va boshqalarni olish maqsadida darhol tintuv qilinishi shart. Ushlab turish bayonnomasida ushlashda olingan barcha narsalar batafsil ko'rsatilishi lozim. Olingan barcha narsalar sinchkovlik bilan o'raladi va muhrlanadi. Ushlab turish bayonnomasida ushlangan shaxsda ushlash vaqtida qanday bosh kiyimi, kiyim va oyoq kiyimi bo'lganligi ko'rsatilgan bo'lishi shart. Uning egnida sodir etilgan jinoyat natijasida talon-toroj qilingan o'zganing kiyimi bo'lishi mumkin. Ushlangan shaxs qurol va jinoyatini fosh qiladigan boshqa predmetlarni, pul, yozishma va shu kabilardan qutulmoqchi bo'lganligi faktini aniqlash uchun ushlash joyini diqqat bilan ko'zdan kechirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 162-moddasiga binoan "shaxsiy tintuv JPKning 157 va 161-moddalari talablariga rioya qilgan holda tergovchi tomonidan shaxsning kiyimlari, uning yonidagi buyumlari ichidan yoki badanidan topilgan, ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarni olib qo'yish uchun amalga oshiriladi"⁴.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish quyidagi hollarda alohida qaror chiqarilmasdan o'tkazilishi mumkin:

jamoat tartibini saqlashga doir burchini bajarayotgan IIB xodimi tomonidan gumon qiluvchini ushlash chog'ida "uning yonida qurol borligiga yoxud jinoyat sodir etganligini fosh qiladigan dalillardan qutulmoqchi ekanligiga yetarli asoslar bo'lganda"⁵;

gumon qiluvchi IIBga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinib, uni ushlash haqida JPKning 224-moddasiga asosan bayonnoma tuzilganda;

ayblanuvchiga nisbatan qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilayotganida, basharti uning yonida qurol, shuningdek saqlanishi taqiqlangan buyumlar yoxud ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlar bo'lishi mumkin deb o'ylashga yetarli asoslar bo'lganida.

"Ushlanayotgan shaxsda qurol borligi yoki u jinoyat sodir etganligini fosh qiluvchi dalillardan qutulish niyatida ekanligini taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ushlayotgan vakolatli shaxs uni shaxsiy tintuv yoki olib qo'yishni amalga oshirishga haqlidir. Shaxsiy tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma ushlangan shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng xolislar hozirligida tuzilishi mumkin. Ushbu protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shart"⁶.

⁴ O'zbekiston Respublikasi JPK 162-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.01.2024-yil

⁵ O'zbekiston Respublikasi JPK 224-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.01.2024-yil

⁶ O'zbekiston Respublikasi JPK 224-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.01.2024-yil

Mazkur protsessual harakatlarni bajarishni kechiktirib bo'lmaydigan holdarda, ularni videoyozuv orqali qayd etmasdan amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. Shaxsni ushlab videoyozuv orqali qayd etilmagan holda, ichki ishlar organi xodimi yoki boshqa vakolatli shaxs ushlab turilgan shaxs yaqin oradagi ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinganidan so'ng videoyozuvdan foydalangan holda uning protsessual huquqlarini tushuntirishi shart. Ushlab turilgan shaxsqa videoyozuv uni namoyish qilish orqali tanishtiriladi.

Ushlab turish, shaxsiy tintuv qilish yoki olib qo'yish bayonnomasiga protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilganligi haqida yozib qo'yilib, videoyozuv materiallari bayonnomaga qo'shib qo'yiladi.

Shaxsiy tintuv va olib qo'yish tintilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi tergovchi tomonidan mutaxassis hamda xolislar ishtirokida o'tkaziladi. Ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv qilish u ushlangan vaqtda o'tkazilishi lozim. Shaxsiy tintuv vaqtida qurollar, o'q-dorilar, jinoyat qurollari, shaxsiy hujjatlar, talon-toroj qilingan ashyolar, ushbu shaxsni sodir etilgan jinoyatga aloqadorligini fosh qiluvchi predmetlar va narsalar (xat, yozishma va boshqalar) olib qo'yilishi shart. Tergovchining barcha harakatlari tergov harakatining barcha ishtirokchilari tomonidan tanishib chiqilgandan so'ng imzolanadigan har bir ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv qilish bayonnomasida aks etishi shart.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi JPK 142-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.10.2024-yil
2. O'zbekiston Respublikasi JPK 220-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.09.2024-yil
3. O'zbekiston Respublikasi JPK 162-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.01.2024-yil
4. O'zbekiston Respublikasi JPK 224-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.01.2024-yil
5. O'zbekiston Respublikasi JPK 224-modda. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 22.01.2024-yil
6. Elektron manba: <https://www.walshmedicalmedia.com/open-access/human-gait-analysis-for-forensic-identification-and-criminal-profiling-122118.html> Murojaat qilingan sana: 28.10.2024-yil